O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
Sharof Rashidov nomidagi
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
Geografiya va ekologiya fakulteti

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
__________ R.I.Xalmuradov
2024 yil “__”________

Ro‘yxatga olindi:
№ BD 60530200-AGD1506
2024 yil “09” 23______

# AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARI

## FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| **Ta’lim sohasi:** | 530 000- Fizika va tabiiy fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60530200 – Geografiya |

| Fan/modul kodi | | O'quv yili | Semestr | ECTS – Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|
| AGD1506 | | 2026-2027 | 5 | 6 | |
| Fan/modul turi | | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Majburiy fan | | O'zbek | | 6 | |
| 1. | Fan nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami (soat) |
| | Aholi geografiyasi va demografiya asoslari | | 78 | 102 | 180 |

| Fanning maqsadi (FM) | |
|---|---|
| FM1 | **I. FANNING MAZMUNI**<br>Fanni o'qitishdan maqsad – Ushbu dastur ijtimoiy va iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan aholi va u bilan bog'liq bo'lgan jarayonlami, dunyo, turli mintaqalur va mamlakatlar aholisi soni, ulaming tarkibiy jihatlari, hududiy joylashuvini va ularni bashoratlash masalalarini qamrab oladi. Shuningdek, mazkur fan geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat buyurtmachi hisoblanuvchi umumta`lim muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlaridan darslarni o`tishda shu soha bo'yicha to'la qonli bilim ko'nikmasiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga o'z mazmuni bilan xizmat qiladi.<br>**Fanning vazifasi** - talabalarga aholi va iqtisodiy geografiyaning asosiy mazmuni, fanning asosiy tushuncha va qonuniyatlari, aholining miqdoriy va sifatiy rivojlanish xususiyatlari, uning tarkibiy jihatlari, hududiy joylashuvi va uning asosiy urinishlarini, ishlab chiqarish tarmoqdari va ularning rivojlanishining hududiy tafovvutlari, ishlab chiqarish tarmoqdari geografiyasini taxlil qilish asosida xulosalar chiqarishdan o'rgatishdan iborat. |

| Fan mazmuni | |
|---|---|
| **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**<br>**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:** | |
| **Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)** | |
| M1 | **Kirish. Aholi geografiyasi fanining obyekti, predmeti, fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari. Aholi geografiyasi va demografiya**<br>Aholi geografiyasining predmeti. Aholi geografiyasining shakllanish bosqichlari va rivojlanish omillari. Uning fanlar tizimidagi o'rni, boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalari. Fanning asosiy vazifalari. Tadqiq etish metodlari. Aholi geografiyasining asosiy bo'limlari. Aholi geografiyasi va demografiya. Demografiyaning aholi geografiyasidan farqli va o'xshash tomonlari. Demografik bilimlarning aholi geografiyasida qo'llanilishi. Aholi geografiyasini xorijda va O'zbekistonda tadqiq etish |
| M2 | **Aholi soni dinamikasi (tadrijiy o'zgarishlari)**<br>Aholi soni, dinamikasi, o'rtacha yillik ko'payishi, o'sish va ko'payish sur'atlari. Aholining mutloq va nisbiy ko'rsakichlari. Aholining dinamikasi va joylashuvidagi regional tafovutlarni va bu tafovutlarni vujudga keltiradigan omillarni, aholi va aholi manzilgohlarining hududiy tizimlarini hamda ularning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Dunyo aholi soni va uning dinamikasidagi o'zgarishlar, geografik tafovutlari. Doimiy va mutloq aholi soni. Aholi ro'yxatlari, tanlama tadqiqotlar, maxsus tadqiqotlar. Aholini hisobga olish, turlari, aholi ro'yxati, rivojlangan, rivojlanayotgan hududlar aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar, aholi takror barpo bo'lish bosqichlari, aholi soni o'sishi yoki kamayishi bilan bog'liq muammolar, aholishunoslikning qonun va qonuniyatlari. |
| M3 | **Aholining takror barpo bo'lish jarayonlari va ularning hududiy xususiyatlari**<br>Aholi takror barpo bo'lishi, demografik o'tish nazariyasi, aholi takror barpo bo'lishining asosiy jarayonlari, ya'ni tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va qisman migrasiya. Demografik o'tish bosqichlari, demografik portlash, demografik inqiroz, demografik koeffisiyentlar.<br>Aholi takror barpo bo'lishi formulasi, oddiy, qisqargan va kengaygan aholi takror barpo bo'lishi. Aholining takror barpo bo'lish ko'rsatkichlari, tug'ilish va o'lim darajasi, ular har bir hudud aholisi dinamikasining tahlili uchun muhim tarkibiy qismi ekanligi. Aholi takror barpo bo'lishning aholi yosh tarkibi bilan bog'liqligi. Dunyo mamlakatlari aholisi takror barpo bo'lishining geografik xususiyatlari |
| M4 | **Aholining tabiiy harakati va unga ta'sir kiluvchi omillar.**<br>Dunyo aholisi tabiiy harakatida tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish asosiy omil sifatida. Aholi tabiiy harakatining umumiy ko'rsatkichlari va ularning geografiyasi. Demografik koeffisiyentlar: umumiy va maxsus, ularning turlari va hisoblash usullari. Dunyoda tug'ilish samaradorligi va dinamikasi. Tug'ilish va ayollarning fertil (reproduktiv) davri. Tug'ilishning umumiy, xususiy va yosh bo'yicha koeffisiyentlari, nikohsiz va nikohdagi tug'ilish. |
| M5 | **Demografik koeffisiyentlar, ularning turlari va hisoblash usullari.**<br>Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish. Aholi o'limi va uning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi geografiyasi-aholi o'limi va tabiiy ko'payish. Aholi o'limi va uning yashash sharoiti bilan bog'liqligi. O'limning demografik jarayon sifatida o'rganilishi. O'limning umumiy va |

| | |
|---|---|
| | maxsus koeffisiyentlari. Aholining o'rtacha umr ko'rishi va geografiyasi. O'lim sabablari. |
| M6 | **Aholining yosh va jinsiy tarkibi**<br>Aholining yosh va jinsiy tarkiblari xususiyatlari. Aholi jinsiy tarkibining yoshga nisbatan o'zgarib borishi, undagi birlamchi (bolalik va o'smirlik), ikkilamchi (balog'at yoshlik) va uchlamchi (yetuklik va qarilik) yoshdagilar o'rtasidagi jinsiy nisbatlar. Biologik va kalendar yoshlar. Aholi jinsiy tarkibi shakllanishidagi omillar. Dunyo mamlakatlari aholisi jinsiy tarkibidagi geografik farqlar.<br>Aholining yosh tarkibi, uning shakllanish omillari va yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi. Aholining yosh-jinsiy tarkibining demografik va hududiy xususiyatlari. Aholining yosh-jinsiy tarkibi modelining demografik piramidada aks etishi. Aholi yosh tarkibi turlari: progressiv, stasionar, regressiv. |
| M7 | **Aholisining irqiy tarkibi**<br>«Irq» haqida tushuncha. Jahon aholisining irqiy tarkibi. Insoniyatning katta yevropoid, mongoloid, negroid, avstroloid va ko'p sonli mayda irqlardan tarkib topganligi. Sof va aralash irqlar, ularning antropologik farqlari. Irqlar kelib chiqishining biologik asoslari. Irqlararo munosabatlar. Irqiy va etnik birliklar nisbati. Dunyo mintaqalari bo'yicha aholining irqiy tuzilishi. |
| M8 | **Dunyo aholisining milliy-etnik tarkibi.**<br>«Etnos», «elat», «millat», «xalq» tushunchalari. Xalqaro milliy munosabatlar. Yirik va kichik tillar va millatlar. Ko'p millatli, ikki millatli va bir millatli mamlakatlar, milliy-etnik jarayonlar: konsolidasiya, assimilyasiya, integrasiya, ularning jahon siyosiy-ijtimoiy hayotida tutgan o'rni. Dunyo mamlakatlari aholisining etnik tarkibi. Til oilalari. Til oilalarining geografik tarqalishi. Xalqlarning tili bo'yicha guruhlanishi. |
| M9 | **Dunyo aholisining diniy tarkibi**<br>Aholining diniy tarkibi. Dunyo dinlari shakllanishi. Arxaik, milliy va dunyoviy dinlar. Xristian, islom, budda dinlari geografiyasi va ularning jahon siyosiy-ijtimoiy munosabatlaridagi o'rni. Katolik, protestant, pravoslav, sunniylar, shiyalar, xinayanlar, maxayanlar va ularning geografiyasi. Dinlarning aholi demografik rivojlanishiga ta'siri. Yirik diniy ziyoratgohlar va ularning xalqaro aholi migrasiyasidagi roli. Jahon mamlakatlari bo'ylab dunyo dinlarining tarqalishi. |
| M10 | **Aholining ijtimoiy va oilaviy tarkibi**<br>Aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy funksiyasi. Ijtimoiy-iqtisodiy muhit. Ijtimoiy guruhlar ularni birlashgan kishilar miqdorining shakllari: Doimiy ijtimoiy guruhlar (oila sinf). Vaqtincha ijtimoiy guruhlar (kishilarning vaqtincha tasodifiy birlashgan guruhlari). Jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarning turlari. Aholining oilaviy tarkibi. Oilalarning |

| | |
|---|---|
| | o'lchami, tuzilishi, funksiyasi, turlari, tiplari bo'yicha taqsimlanishi. Katta va kichik, tugal va tugalmas, oddiy va murakkab, avtoritar va demokrat oilalar. Nikoh shakllari – monogam (yakka juftlik), poligam, poliandriya (ko'p xotinlik, ko'p erlik) oilalar va ularning geografiyasi. Bir millatli va aralash millatli nikohlar. Ajralishlar. Oilani rejalashtirish. |
| M11 | **Aholining bandligi va mehnat resurslari**<br>"Mehnat resurslari", "iqtisodiy faol aholi" tushunchalari va ularning tarkibi. Mehnatda band aholi. Mehnat resurslari balansi. Mehnat resurslari shakllanishi va ulardan foydalanishning hududiy xususiyatlari. Aholi bandligi muammolari. Mehnat bozori, uning hozirgi holati va rivojlanish xususiyatlari. O'zbekistonda mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish holatlari. |
| M12 | **Aholi migrasiyasi, uning turlari va yo'nalishlari**<br>Migrasiya haqida tushuncha. Migrasiya turlari: doimiy, vaqtinchalik va mayatniksimon (mokkisimon), ularning shakllari va xususiyatlari. Migrasiya turlari. Migrasiyani hisobga olish. Ichki va tashqi, ixtiyoriy va majburiy migrasiyalar. Migrasiyaning alohida hududlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. Migrasiya omillari: siyosiy, milliy-etnik, diniy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqalar. Xalqaro migrasion harakatlar tarixi, ularning alohida materiklar, o'lkalar yoki hududlarning iqtisodiy o'zlashtirishdagi roli. Tashqi migrasiya. Emigrasiya, immigrasiya, reemigrasiya, deportasiya tushunchalari va ularning xususiyatlari. «Oqillar ko'chishi», yashirin migrasiya va ularning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari. MDH va O'zbekistonda aholi migrasiyasi va uning xususiyatlari. |
| M13 | **Aholining joylanishi va uning mintaqaviy xususiyatlari.**<br>Aholi zichligi haqida tushuncha, uning mohiyati, hisoblash yo'llari. Aholi zichligi va hududning o'zlashtirilishi darajasi. Aholi zichligi bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolar. Hududning demografik, mutloq va nisbiy sig'imlari haqida tushuncha. |
| M14 | **Aholi punktlari geografiyasi. Shahar va qishloq aholisi.**<br>Aholi punktlari geografiyasi, uning geografik shakllari, turlari. Aholining joylanishi va punktlari haqida umumiy tushuncha. Aholi joylanishining asosiy shakllari. Shahar va qishloq aholisi. Qishloq aholi punktlari vazifalari, o'lchami. Aralash qishloqlar. Qishloq aholi punktlarini klassifikasiyalash. Qishloq aholi punktlarining turlari. Aholining joylanishi va xo'jalikni hududiy tashkil etish. |
| M15 | **Urbanizasiya jarayoni**<br>Urbanizasiya tushunchasi. Shaharlar, shaharchalar va ular tizimi haqida tushuncha. Urbanizasiya jarayonining rivojlanish omillari va turlari. Urbanizasining «ichki» (vertikal) va «tashqi» (gorizontal) rivojlanishi. Suburbanizasiya, rurbanizasiya jarayonlari. Shaharlar tizimi. Shaharlar, |

| | |
|---|---|
| | ularning guruhlanishi va geografiyasi. |
| M16 | **Dunyo aholisining joylanishi. «Oykumena» tushunchasi**<br>Shaharlar tizimi va ularning shakllari: tarqoq, guruh-guruh shaharlar, urbanizasiyalashgan mintaqalar, megapolislar, aglomerasiyalar, Oykumenopolis haqida tushunchalar. Dunyo mamlakatlari aholisining joylanishi, zichligi va ularning hududiy xususiyatlari. |
| M17 | **O'zbekiston aholisi soni dinamikasi, takror barpo bo'lishi va joylashuvi xususiyatlari**<br>O'zbekiston aholi geografiyasining asosiy xususiyatlari. O'zbekiston aholisi soni dinamikasi, tarkibi, aholi takror barpo bo'lishi va uning mintaqaviy jihatlari. Tug'ilish, o'lim va aholining tabiiy harakati. Respublika aholisining demografik tarkibi. Mamlakatda aholining bandligi va mehnat resurslari muammosi. O'zbekiston aholisi migrasiyasi. Aholi punktlari, respublika qishloqlari, shaharlari geografiyasi. |

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S)**
**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**

| | |
|---|---|
| **A1** | Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining predmeti, nazariy ilmiy-amaliy asoslari va tushunchalari. |
| **A2** | Aholi soni va dinamikasi. |
| **A3** | Aholining tabiiy harakati. |
| **A4** | Aholining migratsion xarakatlari. |
| **A5** | Aholining demografik tarkibi. |
| **A6** | Aholining irqiy tarkibi. |
| **A7** | Aholining milliy tarkibi. |
| **A8** | Dinlar va diniy tarkib haqida tushuncha. |
| **A9** | Aholining ijtimoiy tarkibi. |
| **A10** | Mehnat resurslari va ulardan foydalanish. |
| **A11** | Aholining hududiy joylashuvi. |
| **A12** | Shahar va qishloq aholi manzilgoxlari. |
| **A13** | Aholini prognozlashtirish. |
| **A14** | Aholi siyosati. |
| **A15** | Demografik koeefisent |
| **A16** | Aholi tug'ilishi |
| **A17** | Aholi o'limi |
| **A18** | Aholi mexanik harakati |
| **A19** | Demografik hisoblash |
| **A20** | Demografik siyosat |
| **A21** | Demografik portlash |
| **A22** | Demografik muammolar |

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
"Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

| **Mustaqil ta'lim mavzulari (MT)** | |
|---|---|
| **MT1** | Aholi soninng davriy o'zgarish xususiyatlari |
| **MT2** | Aholi va uni ro'yxatga olish jarayoni. |
| **MT3** | Aholining tabiiy ko'payish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar |
| **MT4** | Aholining zamonaviy migratsion xarakatlari. |
| **MT5** | Demografik portlash va demografik tanglik jarayonlari |
| **MT6** | Xalqaro migratsiya va uning sabab hamda oqibatlari. |
| **MT7** | O'zbekiston aholisining milliy va diniy tarkibi. |
| **MT8** | O'zbekistonda aholining hududiy joylashuvi. |
| **MT9** | Global demofafik muammolar va ularni xal etish yo'llari. |
| **MT10** | Urbanizatsiya jarayonining rivojlangan davlatlarga xos xususiyatlari. |
| **MT11** | Ma'lum davlat aholisi va uning tarkibiy xususiyatlarini taxlil etuvchi referat tayyorlash. |
| **MT12** | Aholi soninng davriy o'zgarish xususiyatlari |

"Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, aholi va aholi manzilgohlari tushunchalarini ta'riflash, ularning ilk ko'rinishlari, jahon turizm tajribasining ilg'or namunalari bilan o'rtoqlashish, fanning maqsadlarini aniqlab olish; aholining tarkibiy tuzilishi va asosiy kategoriyalarini bilib olish, Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

| | |
|---|---|
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• Aholi geografiyasi va demografiya tushunchasiga doir ***tasavvurga ega bo'lishi;*** |

| | |
|---|---|
| | • fanning rivojlanish tarixi, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari, boshqa fanlar bilan alokadorligi, dunyo aholisi soni va dinamikasini taxlil qilish, tabiiy va mexanik harakati va ularga ta'sir etuvchi omillar, tarkibiy jixatlarining shakllanish xususiyatlari, ishlab chiqarish tarmoqdari hududiy joylashuvi va rivojlanishini taxlil qilishda geografik xaritalardan foydalanish, statistik ko'rsatkichlar asosida diagramma, grafiklar chizish haqida ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***<br>• talaba jahon aholisining soni, yillik o'sish darajasi, uning turli tarkibiy jixatlarining mintakaviy tafovvutlari, mexnat resurslari va ulardan foydalanish xolati, hududiy joylashuvi va aholi manzilgoxlari turlari, aholi siyosati, xar ishlab chikarish tarmoqdarining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha *ko'nikma va malakagalarga ega bo'ldi.* |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• *munozara,*<br>• *o'z-o'zini nazorat.*<br>• "Aqliy hujum",<br>• "Muammo";<br>• Krossvord<br>• Annogrammalar<br>• Ko'chma dars mashg'ulotlari |
| 5. | **VII. Kreditni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish |

**6.ASOSIY ADABIYOTLAR:**


1. Kadirov M.A. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan. Darslik. Lesson Press nashryoti.-Toshkent, 2019
2. Tojieva Z.N Aholi geografiyasi. Darslik.-T.: "Nodirabegim".-2019
3. . Kadirov M.A. Demografiya. Monografiya. Lesson Press nashryoti.-Samarqand, 2013


**QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**


1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. // Xalq so'zi. 29 yanvar 2022 yil.

2.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 b.

3. Abdurahnmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma.- T.: Noshir nashriyoti. – 2011.

4. Bo'rieva M.R., Tojieva Z.N. Aholi geografiyasi.- T., 2000.

5 Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari.-T.: 2008.

6. Kadirov M.A. Demografiya. Monografiya. Zarafshon. Samarqand, 2019

7.Mardonov B.B Xizmat ko'rsatish sohasi va aholi bandligi. Monografiya T-2013


**AXBOROT MANBALARI:**

www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari portali
www.ziyonet.uz -O'zbekiston Respublikasi ta`lim portali
**https://countrymeters.info/en**

| | |
|---|---|
| 7. | Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar**:<br>**Kadirov M.A** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi professori, g.f.n., |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**L.Z.Ibragimov** – SamDU, "Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi professori, g.f.d. (DSc) (tel: (97)928-68-42<br><br>**Samyayev A.K.** –Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedra katta o'qituvchisi g.f.f.d (PhD) A.Samyayev (tel:(93)3407229). |

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Xaydarov S.A.

**Kafedra mudiri:** **M.R.Usmanov**

**Fakultet dekani:** **S.B.Abbasov**

**Sharof Rashidov nomidagi**
**SamDU O'quv ishlari bo'yicha**
**1-prorektor:** **A. S. Soleyev**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitety Geografiya va ekologiya fakulteti "Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi professori, g.f.n. M.Kadirovning 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun tuzilgan "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" fan dasturiga**

## TAQRIZ

Mazkur dasturni tuzishda 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talabi asos qilib olingan. **"Aholi geografiyasi va demografiya asoslari"** o'quv kursi o'quv jarayonida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur fanning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo'llari bo'yicha bilimlarni shakllantirishga hamda mustaqil ta'limni tashkil etishga qaratilgan. Shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar keltirilgan. **"Aholi geografiyasi va demografiya asoslari"** fani bo'yicha har bir mavzuga annotatsiya, fanning mazmuni va vazifasi, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular, Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), Ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda Kreditni olish uchun talablar, asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati berilgan.

Dasturni tuzishda geografiya ta`lim yo`nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablari asosida fan dasturi ishlab chiqish va tadbiq etish tartibiga rioya qilingan.

**"Aholi geografiyasi va demografiya asoslari"** o'quv dasturi OTM uchun 3-kursi me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, mazkur fan bo'yicha ishchi dasturni ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy fan dasturi sifatida qo'llaniladi hamda tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jaryonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

"Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi professori, g.f.n. M.Kadirov tomonidan tuzilgan ushbu dastur belgilangan tartibga mos keladi va undan o'quv-jarayoniga foydalanish mumkin.

**Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi,**
**Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi**
**katta o'qituvchisi g.f.f.d (PhD)** **A.Samyayev**

A. Samyayev ning
Imzosini tasdiqlayman
Kadrlar bo'limi

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitety Geografiya va ekologiya fakulteti Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi professori, g.f.n. M.Kadirovning 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun tuzilgan "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" fan dasturiga**

## TAQRIZ

Ushbu fan dasturni 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan bo`lib, muallif shu yo`nalish bo`yicha malaka talabi asos qilib olingan. **"Aholi geografiyasi va demografiya asoslari"** o'quv kursi o'quv jarayonida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur fanning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo'llari bo'yicha bilimlarni shakllantirishga hamda mustaqil ta`limni tashkil etishga qaratilgan. Shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar keltirilgan. **"Aholi geografiyasi va demografiya asoslari"** fani bo`yicha har bir mavzuga annotatsiya, fanning mazmuni va vazifasi, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular, Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), Ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda Kreditni olish uchun talablar, asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati berilgan.

Dasturni tuzishda geografiya ta`lim yo`nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablari asosida fan dasturi ishlab chiqish va tadbiq etish tartibiga rioya qilingan.

**"Aholi geografiyasi va demografiya asoslari"** o'quv dasturi OTM uchun 3-kursi me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, mazkur fan bo'yicha ishchi dasturni ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy fan dasturi sifatida qo'llaniladi hamda tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jaryonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. "Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi professori, g.f.n. M.Kadirov tuzilgan ushbu dastur belgilangan tartibga to`la mos kelishini inobatga olib undan o'quv-jarayoniga foydalanish mumkin.

**Sharof Rashidov nomidagi SamDU**
**Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi**
**professori, g.f.d. (DSc)** **L.Ibragimov**